

Ismatov Saidakbar*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti**3- kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada daraxtlarning tabiat va inson hayotida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi, xususan, yashil tabiat, yashillikka burkangan olam shahar havosini 2-8 darajaga salqinlashtirishi, "yashil do'stlar"ning bugungi kunga kelib kamayib borayotganligi, uning salbiy oqibatlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bir dona daraxt bir yil mobaynida o'n besh ming litrgacha suvni tuproqda saqlay olish qudratiga ega. Bugungi kunda daraxtlarning, yashil "go'zallik"ning atrof-muhitga berayotgan foydasi tufayli dunyoning yirik megapolislari yiliga 150 (bir yuz ellik) million dollarga yaqin mablag'larini tejashta muvaffaq bo'lismoqda.*

Kalit so'zlar: *Yashil tabiat, ekologiya, atrof-muhit, daraxtlar, resurs, iqtisodiyot, turizm*

KIRISH

Jadallik bilan taraqqiy etib borayotgan bugungi zamonamizda ona tabiat, ekologiya, atrof-muhit musaffoligini saqlash, keljak avlodlarga uni yetkazish global muammolardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunga kelib, yashil tabiatni asrabavaylash, ekologik musaffolikni ta'minlash, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasida butun yer yuzi mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Hech kimga sir emaski, insoniyatning hayotini daraxtlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan holatdir, chunki ular biz chiqaradigan karbonat angidridni nafas oladigan kislorodga aylantirib beruvchi "mexanizm" hisoblanishadi. Chindan ham hamma narsa havoning tozaligi muammosi keskinlashmaguncha, insoniyat bu masala bilan jiddiy shug'ullanmasligiga olib kelganga o'xshaydi. Tabiatning in'omi daraxtlar, o'simliklarning tabiat va inson hayotida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini yosh-u qari birdek yaxshi bilishadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yashil olam, yashil go'zallik shahar havosini 2-8 darajagacha salqinlashtirishi aniqlangan. Manbalarda keltirilgan raqamlarga qaraydigan bo'lsak, bit dona daraxt yiliga 15 ming litrgacha suvni tuproqda saqlash xususiyatiga ega. Yashillikning atrof-muhitga berayotgan foydasi tufayli yer yuzidagi aksariyat megapolislar har yili 150 million dollarga yaqin mablag'ni tejaydi. Bugungi kunga kelib, jannatmakon ona yurtimiz - O'zbekistonda ijtimoiy iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida keng ko'lamli islohatlar, yangilanshlar amalga oshirilmoqda va ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va o'zbek xalqining turmush farovonligini oshirish ko'rsatkichidir. Aksariyat mamlakatlar qatori turizm O'zbekistonning ham iqtisodiy rivojlanishi va o'sishida muhim o'rinn tutadi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda bugungi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan, keltirayotgan istiqbolli tarmoqlardan biri bu - Milliy Turizmdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayni damda mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan bir qatorda, jannatmakon yurtimizning o'ziga xos tabiat, go'zal dam olish hududlari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyoohlilik yo'naliishlarini kashf etish hamon davom etmoqda. So'nggi 5 yilda O'zbekistonning turizm salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalgalashirilmoxda. Turizm sohasi vakillari ichki va xorijiy sayyoohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishmoqda, mamlakatimiz hududlaridagi turizm infratuzilmasini yaxshilashga doir faol ishlar olib borilmoqda. Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonga ziyorat maqsadida uzoq xorij davlatlaridan tashrif buyurayotgan sayyoohlarning sonida o'sish kuzatilmoqda. Xususan, 2018-yilda uzoq xorij davlatlaridan 325 ming nafar sayyoohlarning tashrif buyuragan bo'lib, ularning 35 foizi, ya'ni 115 ming nafari musulmon sayyoohlari hisoblanadi. 2020-yilda uzoq xorij mamlakatlaridan yurtimizga jami 83 ming nafar sayyoohlari tashrif buyuragan bo'lib, bunda musulmon sayyoohlarning soni 49 787 nafar (59 foiz) ni tashkil qilgan. Lekin, mana bir necha yildirki, yurtimizda erishilayotgan yutuqlarga, muvaffaqiyatlarga rahna soluvchi, iqtisodiyotni orqaga tortuvchi bir holat kuzatilmoqda. Ya'ni O'zbekistonda yashil "do'stlarimiz" - daraxtlarning kesilishi bilan bog'liq muammolar tez-tez ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'lib, kun mavzusiga aylanmoqda. Jamoatchilik noroziliklari va moratoriya qaramay, daraxtlarni kesish bugungi kunda ham davom etmoqda.

Shaharlashtirish maqomi ostida bugungi kunda Toshkentdagi keng ko'lamli qurilishlar daraxtlarning ayovsiz kesilishi va shahardagi chang miqdori keskin ortishiga sabab bo'layotgani afsuslanarli holatdir. Qurilishlarni tartibga solish va tiyib turish uchun poytaxt bosh rejasini ishlab chiqish esa yildan yilga kechikib bormoqda.

Yaqinda Jahon banki bir guruh xodimlari hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamkorligida tayyorlangan hisobot e'lon qilindi. Unda ta'kidlanishicha, "Yashil" iqtisodiyotga o'tish barqaror va inklyuziv bozor iqtisodiyotiga o'tishning ajralmas qismi. Biroq mamlakatimizda bu borada qator muammolar bor. Xususan, O'zbekiston aholi jon boshiga tabiiy resurslar bo'yicha Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan, Qozog'istonni hisobga olmaganda, yaxshiroq ko'rsatkichga ega. Ammo tabiiy kapitalda yaylovlar va haydaladigan yerlarning ulushi ko'p, ekotizimlarning ishlab turishini ta'minlaydigan o'rmonlar va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar esa kam. Shu va suvdan ortiqcha foydalanish bilan bog'liq omillar hududda yer degradatsiyasining tarqalishda davom etishiga sabab bo'ladi. Degradatsiyaga uchragan yerlardagi changning shamol ta'sirida ko'chishi, shahar va sanoat manbalaridan chiqadigan qattiq zarrachalar havoning ifloslanish holatini og'irlashtiradi. Aholining katta qismi muntazam ravishda toza bo'lman havodan nafas oladi, yalpi ichki mahsulotning 6 foiziga teng bo'lgan tasodifiy bo'lman o'lim holatlarini havo ifloslanishi bilan bog'lash mumkin. Yer

degradatsiyasi iqtisodiyot uchun ham juda qimmatga tushadi va bu o'zaro bog'liq ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bular dunyo olimlari va mutaxassislarning izlanishlari natijalari, fikr va takliflari edi. Guvohi bo'lganiningizdek, O'zbekiston bugun ekologik inqiroz ostonasida turibdi.

Aniq raqamlar va tahlillarga to'xtaladigan bo'lsak, shu kungacha o'simlik dunyosiga yetkazilgan zararning umumiy miqdori 3,6 mldr so'mni tashkil etmoqda. Mazkur holatlar bo'yicha 7 ta jinoyat va 2055 ta ma'muriy ish qo'zg'atilib, 1,7 mldr so'mlik zarar undirilgan. Lekin, ushbu undirilgan summa bir donagina kesilgan daraxtning o'rnnini to'ldira olishiga biroz shubhamiz bor. 2022-yilda O'zbekistonda daraxtlarni noqonuniy kesish bilan bog'liq 4599 ta huquqbazarlik holatlari aniqlangan bo'lsa, 2021-yilda 8243 ta, 2020-yilda 7812 ta, 2019-yilda 3733 ta daraxt noqonuniy kesilgan.

Manbalarning yozishicha, bundan bir necha yillar avval Xitoyda bug'doy hosilini asrash maqsadida chumchuqlarga qarshi ayovsiz kurash boshlangan ekan. O'shanda birgina 1958-yilning bahorida butun Xitoy bo'ylab qariyb 2 milliard dona chumchuq ovlangani haqida ma'lumotlar bor. Oxiri o'ylanmay qilingan bu ish tabiatdagi muvozanatni buzib, Xitoy dalalari hashoratlarga to'lib-toshib, hosil avvalgi yilgiga qaraganda bir necha barobarga kamaydi va ocharchilik boshlandi. Hukumat xatosini yillar davomida to'g'rilay olmaydi. Faqat boshqa davlatlardan chumchuqlar keltirilib, dalalarga qo'yib yuborilganidan so'nggina vaziyat asta-sekin o'nglandi.

Bugun qaysidir ma'noda, biz ham tabiatga yetkazayotgan zararlarimiz oqibati bilan kurashyapmiz. Farqi shundaki, biz qushlarni qirmadik, balki daraxtlarga qiron keltirib, butun boshli florani qaqshatmoqdamiz. Buning oqibati yaxshilik bilan tugamasligi barchaga yuqoridagi hayotiy voqeadan kundek ravshanligini bilishimiz mumkin.

To'g'ri, so'nggi yillarda mamlakatimizda daraxtlarni kesishga moratoriyl e'lon qilindi, bu yo'nalishdagi qonunbazarlik uchun jazo choralar og'irlashtirilishi ortidan daraxt kesish holatlari bir muncha kamaydi. "Yashil makon" umummilliyl loyihasi ham tabiatdagi muvozanatning tiklanishiga umid bag'ishlamoqda. Ammo barcha sa'y-harakatlarga qaramay, daraxtlar kesilishi hanuzgacha to'xtagani yo'q.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, holatlar, amalga oshirilayotgan ishlar o'z-o'zidan davlatning "yuragi" – iqtisodiyotiga, davlatning turizm salohiyatiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Iqtisod rivoji ham kesilgan daraxt kabi nurab boradi.

Yashil tabiatni, daraxtlarni, o'rmonlarni kesish davlatning turizm salohiyatiga, iqtisodiga salbiy ta'sir qiluvchi bir necha oddiy, soddagina omillar misolida ko'rib chiqamiz:

- Daraxtlarning, o'rmonlarning kesilishi iqlim o'zgarishiga, global isishga olib kelishi mumkin;
- Turli xildagi issiqxona, korxonalar ish faoliyati davomida hosil bo'ladigan karbonat angidridni o'zlashtirish daraxtlarsiz imkonsiz holatga keladi;
- Daraxtlarsiz haroratning ko'tarilishi va ob-havoning yanada jiddiy hodisalari xavfi ortishiga olib keladi;

- Daraxtlarsiz kelajak tuproqning eroziyasiga, suv sifatining pasayishiga va tabiiy resurslarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Mana shu omillarning barchasi o'z navbatida davlatning turizm sohasiga, uning rivojlanish yo'liga to'g'anoq bo'lishi barchamizga ayon. Iqlimi o'zgargan, issiq haroratli, havosi karbonat angidridga to'la, ichimlik suvining sifati past bo'lgan hududga sayyoohlар oqimining to'xtovsiz bo'lishiga esa hech kimning ishongisi kelmaydi.

XULOSA

Yuqorida sanab o'tilgan omillar, sabablar hozirda atmosferaning ifloslanishi bilan bog'liq muammolar barchani birdek tashvishga solmoqda, o'ylantirib chuqur fikrlashga undamoqda. Jamiyatdagi, yer yuzidagi har bir mavjudot, har bir inson toza havodan nafas olish, ekologik toza hududlarga turist sifatida tashrif buyurish, olam-olam zavq olish huquqiga ega. Mana omillarning, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ekologik, iqtisodiy muammolarning oldini olish uchun ham bugun O'zbekiston quyosh va shamol energiyasiga asoslangan elektr stansiyalarini qurish va ishga tushirish orqali "yashil" energetikani rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Shu bilan birgalikda, ona tabiatni asrab-avaylashga oid keng ko'lamli chora-tadbirlar, islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Teran fikr bilan o'ylab ko'radigan bo'lsak, bugungi kunda yurtimizda sodir bo'layotgan, iqtisodimiz, turizm salohiyatimizga yuk bo'ladigan daraxtlarning kesilishi, havoning ifloslanishi singari ekoliyaga oid masalalarni hal etish faqatgina davlatning zimmasida emasligini aytishimiz mumkin. Ushbu masalaga, muammolarning yechimiga barchamiz birdek burchlimiz. Hech kimga sir emaski, daraxtlar nafaqat havoni tozalaydi, balki zararli gazlarning tarqalishiga to'sqinlik qiladi, serqatnov shahar ko'chalaridagi shovqin darajasini bostiradi, hududlar havo haroratining mo'tadil bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday ekan, havo toza emasligidan, daraxtlar kesilib bitganligiyu uning salbiy oqibatlari va kelib chiqadigan muammolaridan nolib o'tirgandan, bir dona bo'lsa ham daraxt, turli xil ko'chatlar ekib, uni parvarishlasak atmosferaning tozalanishiga, iqtisod rivojiga, turizm salohiyatiga oz bo'lsada hissa qo'shgan bo'lamic.

Barchamiz bir haqiqatni anglab, tan olib turganmiz - ekologik inqiroz ostonasida turibmiz. Shunday ekan, yurt kelajagiga befarq bo'lman, kelajak avlod uchun qayg'uradigan har bir inson, har bir O'zbekiston fuqarosi xulosa qilishga shoshilaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Mirziyoyev, S. (2018). "2017-2022-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi", Tashkent.
2. Ernazarov, G. (28.01.2021). Yangi xavfsiz va sog'lom turizm. Jenmin Jibao, Xitoy
3. Jurakhonovich, K. S. (Apr - jun 2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems and Solutions. Social Sciences and Humanities, Uzbekistan.
4. Turizm sayyoqlik. T.Xoldarov , X.Tulenova Toshkent 2016 yil.

5. "Xazonrezgi: muammo bor, yechim-chi?", Islom XUSHVAQTOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 06.10.2020
6. "Daraxtlarga qo'shib, yana nimalarni yo'qotyapmiz?" ilmiy maqola, Muhabbat Ma'mirova, Kun.uz muxbiri, 04.07.2021
7. <https://yuz.uz/news?category=Tourism&page=7&limit=10>, Янги Узбекистон; Turizm, yuz.uz (b. Uzbekistan). Tashkent: 11/02/2021
8. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-turizm-industriyasi-zhadal-suratlarda-taraqqiy-etyapti>